

CHET TILINI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR

Isakova Dilrabo Botirjonovna

UzDJTU Tarjimonlik fakultet
Roman-german tillari tarjimashunosligi
kafedrasи o'qituvchisi

E-mail: bd.isakova@mail.ru

Annotatsiya. Ta'lim muassasalarida chet tillarini, xususan nemis tilini o'qitilishi innovatsion ta'lim nazariyäsining yaratilishi bilan bog'liq. Bu ta'lim tizimini texnologiyalashtirish, pedagogik texnologiyalarni ta'lim tizimiga kiritish orqali ta'lim tizimini islox qilish, ta'lim samaradorligini oshirish, shaxs ijtimoiylashuvini ta'minlash, bu borada muayyan muvaffaqiyatlarga erishish uchun ta'lim jarayonida bolaga xorijiy ta'lim yutuklarini singdirgan xolda munosabatda bo'lishni shakllantirishga sabab bo'ladi.

Kalit so'zlar: innovatsiya, ta'lim, ta'lim samaradorligi, pedagogika, ta'lim tizimi.

Аннотация. Преподавание иностранных языков, особенно немецкого, в образовательных учреждениях связано с созданием инновационной теории образования. Это технологизация системы образования, реформирование системы образования путём внедрения педагогических технологий в систему образования, повышения эффективности образования, обеспечения социализации личности и для достижения определённых успехов в этом отношении, в Учебный процесс, преподавание ребёнку зарубежных образовательных достижений вызывает формирование отношения к ним при усвоении.

Ключевые слова: инновации, образование, эффективность образования, педагогика, образовательная система.

Annotation. Teaching foreign languages, especially German, in educational institutions is associated with the creation of an innovative theory of education. This is the technologization of the education system, the reform of the education system by introducing pedagogical technologies into the education system, increasing the effectiveness of education, ensuring the socialization of the individual and to achieve certain successes in this regard, in the educational process, teaching a child foreign educational achievements causes the formation of an attitude towards them when assimilating.

Keywords: innovations, education, educational effectiveness, pedagogy, educational system.

Hozirgi kunda ta'lim tizimida chet tillarini, xususan nemis tilini o'rgatishning innovatsion usullarini qo'llash orqali o'qitish muxim axamiyat kasb etmoqda. Pedagog-o'qituvchilarni tashabbuslari va yangiliklari asosida aynan barcha ta'lim tizimida mazmun rivojlanish kuzatiladi. Shuningdek, umuman ta'lim tizimi rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bir so'z bilan aytganda, innovatsiya ma'lum bir faoliyat maydonidagi muammoni yechish uchun yangicha yondashuv demakdir.

O'quv yurtlarida nemis tilini o'rgatish zarur. Ularda nemis tilini o'rgatish o'quvchi va talabalarini xar tomonlama rivojlangan qilib tayyorlashda katta yordam beradi. Ayniqsa, respublikamiz mustaqillikka erishgandan so'ng kadrlar tayyorlash masalasida nemis tilini o'rgatish yuqori o'ringa ko'tarildi. Shuni hisobga olib, kadrlar tayyorlash dasturi ishlab chiqildi va tasdiqlandi. Unda kadrlar tayyorlash, yoshlarni xar tomonlama rivojlangan, kamol topgan qilib tarbiyalashda, ilmli qilishda, fanlarni o'qitilishida chet tillarining, shu jumladan, nemis tilini uzluksiz o'qitish belgilandi.

Respublikamizda rivojlanish, taraqqiyot, davr, vaqt ham chet tilini, shu jumladan, nemis tilini o'rgatish zarurligining ahamiyati yaqqol ko'zga tashlanmoqda. Hozirgi paytda nemis tilini uzluksiz o'rgatish hisobga olinib, turli tipdagi o'quv yurtlarida nemis tili o'rgatish masalasi va ular uchun dastur, darslik, qo'llanmalar ishlab chiqish, ularning metodikasi bilan shug'ullanish masalasi dolzarb bo'lib turibdi.

Til o'rganish kishilik jamiyatida bag'oyat muhim sohalardan hisoblanadi. Aloqa vositasi bo'lmish tilni tabiiy muhitda (oilada, jamoatchilik orasida) yoki uyushgan holda darsda amaliy egallash mumkin. Til hodisalariga oid bilimlar esa nazariy jihatdan o'rganiladi. Xalqaro munosabatlar avj olgan zamonomizda tillarni bilish, ko'p tillilik ulkan ahamiyat kasb etmoqda.

Umuman olganda pedagogika shiddat bilan rivojlanmoqda, ta'limga **innovatsiya, innovatsion faoliyat, innovatsion pedagogika, ta'limga innovatsion jarayonlarni boshqarish, chet tillarini o'rganish, chet tilida dars o'tish** kabi tushunchalar paydo bo'ldi. Mamlakatimizda chet tillarini o'rgatish va maktabgacha ta'lim muassasalaridan boshlab barcha ta'lim maskanlarida o'qitilishini tashkil etish yangi bosqichga ko'tarilmoqda. 2012 yil 10 dekabrda qabul qilingan "Chet tillarini o'rganish tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori hamda 2013-2014 o'quv yilidan boshlab umumta'lim maktablarining birinchi sinflarida xorijiy tillarni uzliksiz o'rgatishning joriy etilishi buni isbotidir. Xozirgi kunda chet tilini o'rganishning sababi, fan, madaniyat va iqtisodiyot rivojlangan davlatlar qatoriga kirish uchun jahon ilm-fani va taraqqiyoti yutuqlarini egallashning muhim omili sifatida manashu innovatsion jarayonga e'tibor berilmoqda.

Bugungi kunda pedagoglarning innovatsion faoliyat ko'nikma, malakalariga ega bo'lishlari muhim ahamiyatga ega. Pedagoglar tomonidan innovatsion faoliyat ko'nikma, malakalarini o'zlashtira olishlarida ularning innovatsion yondoshuvga ega bo'lishlari talab etiladi. O'z mohiyatiga ko'ra pedagoglar tomonidan innovatsion faoliyat ko'nikma, malakalarining o'zlashtirilishi ularda innovatsion yondoshuvni qaror topishi asosida kechadi.¹

Globallashuv sharoitida ta'lim shaxsni har tomonlama voyaga yetkazish, unda komillik va malakali mutaxassisga xos sifatlarni shakllantirishda muhim o'rinn tutadi. Bugungi tezkor davr ta'lim oluvchilar, shu jumladan o'quvchilarni xam qisqa muddatda va asosli ma'lumotlar bilan qurollantirish, ular tomonidan turli fan asoslarini puxta o'zlashtirilishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishni taqozo etmoqda.

Nemis tili o'qituvchisi o'zining qo'llayotgan metod, usul, yo'llari, mashqlarni

¹Karimov, U., & Abdurakhmon, A. (2017). INNOVATIVE INFORMATION TECHNOLOGY IN EDUCATION. Форум молодых ученых, (5), 9-12.

to‘g‘riligini bilish, o‘quvchilarga, talabalarga qanday bilim berayotganini, kamchiliklarini aniqlashi, tekshirish natijasi orqali bo‘ladi. Nemis tilini o‘rganayotgan, o‘qiyotgan o‘quvchi va talabalar o‘zlarining bilimlari natijasini bilishga qiziqadilar.

O‘qituvchining nutqi imkonи boricha sintaktik jihatdan sodda, jozibador, ta’sirchan tuzilishi lozim. Har qanday bilim va tarbiya, asosan o‘qituvchining dars hamda darsdan tashqari kundalik nutqi orqali berib boriladi. Nutqda, u qanday shaklda bo‘lmisin, bizning qadriyatlarimiz hurmat qilinishi lozim. Pedagogik nutqiy muloqotning o‘ziga xosligi o‘qituvchining hamma yerda, har qanday sharoitda ham tarbiyachi ekanligi bilan xarakterlanadi. Pedagog o‘z tarbiyalanuvchilari bilan ko‘proq auditoriyada, darsda nutqiy muloqotda bo‘ladi. Uning nutqi ilmiy-pedagogik mazmun kasb etadi. Bunday nutqda ilmning turli sohalariga xos qoidalar, atamalar, xulosalar aks etadi. Bunday nutqda har bir narsa o‘z o‘rnida, me’yorida bo‘ladi. Atamalarga, yangi so‘zlarga berilgan izohlar sodda, o‘qituvchi o‘zlashtira oladigan sintaktik qurilmalarda beriladi. Qoida va nazariyalar hayotiy, o‘quvchiga yaqin misollar bilan tushuntiriladi.²

Nutqning to‘g‘riliği uning adabiy til normalariga mosligidir. Adabiy til normalari ko‘p tarmoqli bo‘lgani uchun nutqning to‘g‘riliği ham bir qancha shartlarni o‘zida qamraydi. Nutqning to‘g‘riliği uning eng muhim aloqaviy fazilatidir. Nutq to‘g‘ri bo‘lmasa, boshqa kommunikativ fazilatlari ham buziladi. Nutqning tuzilishi to‘g‘ri bo‘lmasaga, uning mantiqiyligi, aniqligi, o‘rinligi kabilar haqida gapirib bo‘lmaydi. To‘g‘ri nutq tuzish uchun so‘zlovchi adabiy til normalarini egallab olgan bo‘lmog‘i lozim. Bu esa juda murakkab, sermashaqqat ishdir.

O‘quv yurtlarda nemis tili o‘qitishda shu tomonlar birga qiziqib, tekshirish natijasidan to‘g‘ri xulosa chiqarib ish tutsalar, nemis tili o‘qitish kungildagidek, dastur talabiga amal qilingan xolda, umumta’lim, tarbiyaviy, amaliy, rivojlantiruvchi yo‘nalishda bo‘ladi, maqsadlar amalga oshadi.

Chet tili o‘qitish metodikasining fan sifatida o‘z nazariyasi, amaliyoti va tarixi bor. Chet tili o‘qitish mazmunining ham ta’lim mazmuni tarkibiga kiruvchi ilmiy kategoriyasi o‘z nazariy va amaliy tomonlari, tarixiy manbalari bo‘lib, tadqiqotchilar e’tiborini jalg qilib kelmoqda.

O‘qish gapirish bilan aloqador, unga bog‘likligi bor. O‘quvchi o‘qigan ma’lumot orqali gapiradi, ma’lumot beradi. U qancha ko‘p o‘qisa, shuncha gapirishi uchun ma’lumotga ega bo‘ladi. Shu sababdan o‘quvchi, talaba ichida, ovoz chiqarib, ovoz chiqarmay o‘qib gapirish uchun ma’lumot to‘playdi. O‘qish gapirish uchun ma’lumot manbaidir.

O‘quvchi, talaba o‘qigan, tinglagan, gapirgan materiallarini, ma’lumotini yozma ifodalaydi. Ular ma’lumotni yozma ifodalasa, uning hotirasida, yodida yaxshi qoladi. Gapirishi osonlashadi. Yozuv ham gapirish ma’lumotini, materialini esda qolishiga yordam beradi.

Yuqoridagilardan ko‘rinib turibdiki, gapirish faoliyati boshqa nutq faoliyatları

² Rayimov, A. A., & Karimova, G. Y. (2021). Social Aspects Of The Formation Of Social Activity In Youth. *Oriental Journal of Social Sciences*, 29-32.

bilan aloqadadir. Qator tadqiqotlarning ma'lumotlariga ko'ra, gapirish nutq umumiyligi hajmining 30 foizini, yozuv esa 9 foizini tashkil qiladi. Shuning uchun gapirish nemis tilini o'rgatish va o'rghanishning eng muhim maqsadi hisoblanadi.

Darsdagi o'qituvchining nutqi tinglab tushunish, gapirishni o'rgatishda muhim o'rin tutadi. O'qituvchi darsda qancha ko'p, to'g'ri gapirsa, o'quvchi, talaba ham to'g'ri talaffuz qiladi, gapiradi, gapirmasa, kam gapirsa, o'quvchi, talaba ham kam gapiradi. Shu sababdan o'qituvchi o'zi ustida ishlashi, darsni nemischa tashkil qilishga tayyorlanishi, nemischa iboralarni to'g'ri qo'llashi talab etiladi. Darsda o'quvchi, talaba doim nemischa nutqni eshitsa, nemischa muhit yaratiladi, bu esa o'qituvchini tinglab tushunishga yordam beradi. Darsda o'qituvchi nemischa salomlashishi, o'zini gapirtirishi, nemischa ma'lumot berishi, tili o'rghanilayotgan mamlakat haqida axborot, ma'lumot berib turishi zarur.

O'quv jarayonida nimani o'rgatish masalasining mohiyatiga oid mutaxassislarining turli, ko'pincha bir-biriga qarama-qarshi fikrlari izohlab kelinmokda. Bu borada ikki muammo mavjud: birinchisi — nimani o'rgatiladi, savoliga javob berishda, aksariyat olimlar ta'lim mazmuni o'rgatiladi, degan aslida to'g'ri, ammo umumiyligi javobni aytadilar.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, hozirgi kunda ta'lim tizimida va ta'lim muassasalarida chet tillarini, xususan nemis tilini o'rgatishning innovatsion usullarini qo'llash orqali o'qitish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Demak, har qanday xorijiy tillarni mukammal o'zlashtirishda va o'qitishda o'qituvchi nutq madaniyatining o'rni katta ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Karimov, U., & Abdurakhmon, A. (2017). INNOVATIVE INFORMATION TECHNOLOGY IN EDUCATION. *Форум молодых ученых*, (5), 9-12.
2. Karimov, U. U., & Karimova, G. Y. (2021). THE IMPORTANCE OF INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN ACHIEVING EDUCATIONAL EFFECTIVENESS. *Журнал естественных наук*, 1(1).
3. Abdurakhmonova, M., Karimova, G., & Karimova, M. (2021). ROLE OF ETHICAL CULTURE IN PREVENTING VIOLENCE AMONG SPUPILS. *Интернаука*, (11-2), 50-51.
4. Abdurakhmonova, M. M., ugli Mirzayev, M. A., Karimov, U. U., & Karimova, G. Y. (2021). Information Culture And Ethical Education In The Globalization Century. *The American Journal of Social Science and Education Innovations*, 3(03), 384-388.
5. Каримов, У., Каримова, Г., & Каримов, У. (2021). ИЛМ-ФАН ВА ТАЪЛИМ СОҲАСИДАГИ АХБОРОТЛАШУВ. *Central Asian Academic Journal of Scientific Research*, 1(1), 103-110.
6. Abdukarimova, M., & Karimova, S. (2021). THE USAGE OF BUSINESS VOCABULARY IN THE ENGLISH LANGUAGE. *Academic research in educational sciences*, 2(11), 919-922.
7. Karimov, U., & Abdurakhmon, A. (2017). INNOVATIVE INFORMATION

TECHNOLOGY IN EDUCATION. *Форум молодых ученых*, (5), 9-12.

8. Rayimov, A. A., & Karimova, G. Y. (2021). Social Aspects Of The Formation Of Social Activity In Youth. *Oriental Journal of Social Sciences*, 29-32.
9. Abdumalikov, A. A. (2017). FORMATION OF YOUTH INFORMATION CULTURE. *ISJ Theoretical & Applied Science*, 11(55), 277-280.
10. Абдумаликов, А. А. (2020). VIOLATION OF CONTRADICTIONS BETWEEN SOCIETY AND NATURE AS A GLOBAL CIVILIZATION. *Scientific Bulletin of Namangan State University*, 2(4), 218-224.
11. Kholikova, D. M. (2019). INNOVATIVE ACTIVITY OF MODERN HIGH SCHOOL: TENDENCIES OF DEVELOPMENT. *Scientific Bulletin of Namangan State University*, 1(9), 215-220.
12. Kipchakova, Y. X., & Kodirova, G. A. (2020). INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN MODERN EDUCATION. *Теория и практика современной науки*, (5), 29-31.